



SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 12 - oktabr

249-7-99-Q/22

Nurobod tuman hokimligi

Nurobod tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari, ichki xo'jalik yo'llari va markaziy ko'chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida, Oltinsoy mahallasiga sun'iy yo'l notekisliklarini o'rnatish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarorlarida hamda "2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida avtomobil yo'llarida inson hayoti va sog'lig'ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlari - avtomobil yo'llari infaratusilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo'l harakati ishtirokchilarining "piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport" ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo'l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta'minlash borasida sun'iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Hududdagi aholining murojaati va Nurobod tumani ichki ishlar bo'limining 2022-yil 15-avgustdagi 47/1741-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin va maqullansin.

2. Oltinsoy mahallasi hududida joylashgan 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, yirik savdo do'konlari kabi joylarga o'tish joylari yaqinida hamda odamlar

ko'p to'planadigan joylarga O'zbekiston Respublikasi davlat standarti O'zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun'iy notekisliklar, shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori talablari asosida sun'iy yo'l notekisliklari o'rnatish tashkil etilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi bo'limi (J.Parmonov), tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (X.Primov), tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (M.Raimshukurov) hamda mahalla fuqarolar yig'ini raislari bilan birgalikda sun'iy yo'l notekisliklarini yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil yetish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev) ushbu qarorni "Nurobod" gazetasida nashr etilishi, tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari (N.Raxmonov) hamda tuman ichki ishlar bo'limi (Z.Suvankulov) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b



R.Ibragimov